

## ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARNI ONA VA HOMILA SALOMATLIGIGA KOMPLEKS TA’SIRI SOG’LOM KELAJAK HAYOT POYDEVORI

**Nishonova Sayyora Toyrjonovna**

*Respublika Shoshilinch Tez Tibbiy Yordam Ilmiy Markazi Farg’ona Filiali*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ekologik muammolar va ularning homilador ayollar hamda homilaning salomatligiga ta’siri yoritilgan. Havo, suv, oziq-ovqat ifloslanishi, sanoat chiqindilari, kimyoviy moddalar va shovqin va stress omillarining homiladorlik jarayoniga salbiy ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ekologik havfsizlikni ta’minlash orqali sog’lom avlodni voyaga yetkazish masalalari muhim ahamiyat kasb etishi ko’rsatib beriladi.*

**Kalit so’zlar:** *ekologiya, homiladorlik, atrof-muhit, havo ifloslanishi, sog’lom avlod.*

“Har bir inson o‘z salomatligining me’moridir”, – deb yozadi Abu Ali Ibn Sino. Bugungi kunda ekologik muammolar global muammolardan biri bo‘lib, inson salomatligiga jiddiy tahdid solayotgani statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, sanoat chiqindilarining ortishi, kimyoviy moddalardan nazoratsiz foydalanish ayniqsa homilador ayol va homila rivoji uchun xavfli hisoblanadi. Homiladorlik davri ayol organizmi uchun eng nozik davr bo‘lib, bu vaqtda tashqi muhit omillari salomatlikka kuchli ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli ekologik muammolar va ularning homiladorlikka ta’sirini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Ekologik muammolar turlari:

Havo ifloslanishining homiladorlikka ta’siri:

Havo ifloslanishi ekologik muammolarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar, chang va tutun zarralari homilador ayol organizmiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko’rsatadiki havo ifloslanishi homilaning yetarli darajada rivojlanmasligi, past vazn bilan tug‘ilish holatlariga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari doimiy ifloslangan muhitda yashash homilador ayolda turli surunkali kasalliklarni avj olishiga, ularni zo‘rayishiga olib keladi. Xususan:

-Nerv tizimidagi o‘zgarishlar. Ba’zi gazlar homilaning miya rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

-O‘pka va nafas olish tizimi. Homilador ayollarda o‘pka faoliyatining sekinlashishi, kislorod yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin.

-Yurak-qon tomir tizimi. Havo ifloslanishi arterial qon bosimini oshishi va yurak faoliyatini izdan chiqarishi mumkin.

Suv va oziq-ovqat ifloslanishining salbiy oqibatlari.

Suv va oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalar ham homiladorlikka jiddiy xavf tug‘diradi. Og‘ir metallar, pestidsidlar va boshqa toksik moddalarning organizmga tushishi homila rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatib quyidagilarga sabab bo‘ladi:

- homilaning kam vaznda tug‘ilishi;
- tug‘ma nuqsonlar paydo bo‘lishi;
- ona organizmida toksik yuk oshishi.



Tuproq ifloslanishi esa o‘z navbatida genetik mutatsiyalar va endokrin tizimi buzilishlariga sabab bo‘lib, homilani tug‘ilgandan keyin bolani rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo‘ladi.

Ekologik ifloslanish homilador ayollarda:

- qon bosimining oshishi va gipertoniya xavfini oshiradi
- nafas olishning buzilishi va allergik reaksiyalar xavfini oshiradi
- stres va immun tizimini zaiflashtiradi.

Atrof-muhitdagi shovqin va ekologik streslar homilador ayolning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, gormonal buzilishlarga olib keladi.

Homiladorlik davrida vujudga kelgan ekologik muammolar ta‘sirida homilaning genetik jihatdan homila DNK kasida mutatsiyalar paydo bo‘lib, Daun sindromi kabi irsiy kasalliklarni avj olishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ekologik muammolarni oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar:

1.Shaxsiy himoya. Toza havo va suv manbalalrini tanlash va havo ifloslanish darajasi yuqori hududlarda uzoq vaqt qolmaslik.

2. Sog‘lom ovqatlanish. Pesticidlar va zararli qo‘shimchalardan saqlanish va tabiiy mahsulotlar, meva sabzavotlarni me‘yorida iste‘mol qilish. Organik mahsulotlarni tanovul qilish kerak.

3.Tibbiy nazorat. Homilador ayollar o‘z vaqtida rejali tibbiy ko‘riklardan o‘z vaqtida o‘tishi, zarur tekshiruvlarni amalga oshirishi hamda vitaminlar va antioksidantlarni qabul qilishi lozim.

4.Jamiyat va hukumat choralari. Sanoat chiqindilarini nazorat qilish, yashil hududlarni barpo qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki ekologik muammolar homila va ona organizmiga jiddiy xavf tug‘diradi, xususan:

-Havo ifloslanishi bilan bog‘liq hududlarda tug‘ma nuqsonlar 15-20% yuqori

-Ichimlik suvini ifloslanishi homila vaznini kamayishini 2-3 barobar oshirib, erta tug‘ish havfini yaratadi

-Pesticidlar va kimyoviy moddalar ona immun tizimini zaiflashtirib, tug‘ilayotgan chaqaloqlar orasida allergik teridagi toshmalar, nafas a‘zolarining allergik kasalliklariga moyollikni oshiradi.

Ushbu tahlil profilaktik choralarni joriy etish va atrof-muhitni toza saqlash global muammolarni oldini olishga sabab bo‘ladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda ekologik muammolarni ilmiy asosda chuqur o‘rganish ularning homiladorlik va perinatal rivojlanishga ta‘sir mehanizmlarini aniqlash hamda profilaktik va tashkiliy chora tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish sog‘lom avlodni shakllantirish va onalar salomatligini muhofaza qilishda muhim strategik ahamiyatga ega. Zero, sog‘lom avlod kelajak poydevori.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. World Health Organization.  
Environmental health in pregnancy.  
Geneva. WHO. 2020.
2. Smith R, et al. Air pollution and pregnancy outcomes. Environmental Research. 2019
3. Landrigan P.J et al Pollution and child health. Lancet 2018.
4. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Atrof-muhit va inson salomatligi. Toshkent.  
2021.